

JOURNAL OF EFFECTIVE LEARNING AND SUSTAINABLE INNOVATION

SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI

Aniq fanlar

Tarix fanlari

Turizm fanlari

Texnika fanlari

Tibbiyot fanlari

Filologiya fanlari

Pedagogik fanlar

Iqtisodiyot fanlari





INNOVATIVE PUBLICATION

Journal of Effective

innovativepublication.uz



Learning and Sustainable Innovation

«Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation» ilmiy-uslubiy jurnali: №1

Ushbu to'plamda « **Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation** » ilmiy-uslubiy jurnali 2023 yil 1-sonida qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

« **Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation** » ilmiy-uslubiy jurnali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan olingan №141091-sonli guvohnomaga ega.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalar **Google Scholar, Zenodo, Open Aire, Citefactor, Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Internet Archive, Base Search** va bir qancha boshqa xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

Jurnal materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar

“INNOVATIVE PUBLICATION” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI



**MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ**

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MUSTAQIL TA’LIMNING AHAMIYATI G'ofurov Tolibjon Nurullabekovich	1-4
Qumqo'rgon va Boysun tumanlari tog'-oldi tuproqlarining biologik faolligi Jumayeva Surayyo Baxtiyor qizi	5-7
O'zbekistonda kredit-modul tizimi va uning afzalliklari Axundjanova Muxabbat Lazizovna	8-12
BOSHLANG'ICH SINFDA DARSNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UYGA VAZIFANING AHAMIYATI. Raximova Salomat Sadinovna	13-16
DEVELOPMENT OF SPEAKING SKILLS VIA COMMUNICATIVE TEACHING STRATEGIES IN ENGLISH CLASSES. Xaydarova Xurshida Rustam qizi	17-20
RESPUBLIKAMIZDAGI TA'LIM SIFATIGA OID ISLOHOTLAR IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR Samatova Umida Xayrullayevna	21-25
Tahsil olish jarayonining turli shakllarida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-didaktik modeli. SH.SH.Matirzayev	26-31
Tarjima dasturlarining ishlash prinsipi Qodirova Madinabonu	32-38
EKOLOGIYA INSON VA DUNYO NIGOXIDA Hasanov Hayitmurod Abdirashit o'g'li Musaeva Mehriniso Xamro qizi	39-46



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MUSTAQIL TA‘LIMNING AHAMIYATI

G'ofurov Tolibjon Nurullabekovich
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning innovatsion ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida mustaqil ta‘limdan foydalanish asoslari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi, ta‘lim, innovatsiya, mustaqil ta‘lim, metod.

KIRISH

Jamiyatning barcha jabhalaridagi muammolar, o‘zgarishlar oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga ham ta’sir qilib va yangidanyangi talablarni qo‘yadi. Hozirgi paytda nazariy bilim va amaliy ko‘nikmaga ega, o‘zgarishlarga moslanuvchan, erkin fikrlaydigan, kasbiy hamda hayotiy muammolarini mustaqil hal qila oladigan mutaxassislariga, kadrlarga ehtiyoj katta. Shu bilan birga, oliy ta‘lim muassasalarida talabalaridan har tomonlama bilimdonlik, mustaqil fikrlay oladigan, tashkilotchilik qobiliyatiga ega shaxs darajasini talab etadi. Bunday talablarning bajarilishi, albatta ularni butun hayoti davomida bilim olishga o‘rgatish orqali ta‘minlanadi [4].

ADABIYOTLAR SHARHI

Bizning fikrimizcha, oliy ta‘lim tizimida mashg‘ulotlarni o‘qitishda asosiy e’tibor bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxsiy va kasbiy faoliyatlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak. Shuningdek, mustaqil ta‘lim olishning turli samarali usullarini qo‘llash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqil ishlash va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga intilish lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL



Ta'lim oluvchining mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash uning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, muammolar bo'yicha ilmiy fikrlay olishini rivojlantirish, ob'ektiv borliqni tasavvur eta olishga u yoki bu shaklda tashkil etilgan mustaqil ish ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan.

Birinchidan, mustaqil ish – o'quv jarayonida nazariy va amaliy mashg'ulotlar bilan bog'liq holda olib boriladi.

Ikkinchidan, mustaqil ish – ta'lim metodlari, shakllari va mazmuni bilan bog'liq holda tashkil etiladi.

Uchinchidan, mustaqil ishga rahbarlik qilish, ya'ni boshqarish o'qituvchidannafaqat pedagogik mahorat, balki tashkilotchilik sifatiga ega bo'lishini ham talab etadi.

Mustaqil ish – bu o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakli ham emas, ta'lim metodi ham emas. Mustaqil ish – bo'lajak o'qituvchilarni mustaqil bilish faoliyatiga jalb etish motivi, uni mantiqiy va psixologik tashkil etish vositasidir.

Shuni ta'kidlash joizki, mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etishda pedagogik va psixologik tamoyillarga tayanishi zarur.

Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bu mustaqil ishdir. Mustaqil ish bo'lajak o'qituvchilarning aqliy, pedagogik va psixologik fikrlashlarini faollashtiradi, o'quv adabiyotlari bilan ishlash malakalari va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Demak, bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil bilim olishga tayyorlash jarayonida ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zarur.

Bo'lajak o'qituvchi mustaqil ta'lim topshiriqlarini tuzish va amalga oshirishda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlarini, iqtidorini hisobga olishi, mustaqil bajarish bo'yicha kerakli uslubiy tavsiyalarni berishda zaruriy o'qitish vositalarning e'tiborga olishi kerak.

Mustaqil ishlar tizimi deyilganda, biz bir-biri bilan o'zaro bog'langan va bir-



birini mazmunan to'ldiradigan, birining mazmuni ikkinchisidan mantiqan kelib chiqadigan va umumiy maqsadga bo'ysungan topshiriqlar majmuini tushunamiz.

L.V.Golish va D.M.Fayzullaevlar o'zining olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil ishni bajarishda ularning faoliyati tizimida ko'rsatilgan har bir elementlarning muvaffaqiyatli rejalashtirish, tashkillashtirish, monitoring va baholash zarur ekanligini asoslab berishgan [3].

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 3-bobining "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" deb nomlangan 1-§ da "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" [1] masalalarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga muammo sifatida talqin etilganligi bois, 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham "Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi" [2] deb belgilab qo'yilganligini keltirib o'tish mumkin.

XULOSA VA MUNOZARA



Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. Oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. O'RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr.
3. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2014.
4. Isaev I.F. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy ongini shakllantirish va rivojlantirish // Psixologiya savollari. 2020. - 3-son. – 57-66-betlar.
5. Slastenin V.A. Podimova L.S. Pedagogika innovatsion faoliyatdir. - M .: Magistr nashriyoti, 2017. - 221 b.
6. Rashidov Dilovar Najmiddinovich. (2023). Increase jobs for transport companies in uzbekistan by increasing the purchase of products manufactured by people with disabilities. *American Journal of Business Management, Economics and Banking*, 12, 128–130. Retrieved from <https://americanjournal.org/index.php/ajbmeb/article/view/854>



Qumqo'rgon va Boysun tumanlari tog'-oldi tuproqlarining biologik faolligi

Jumayeva Surayyo Baxtiyor qizi

*TerDU Tabiiy fanlar fakulteti Tuproqshunoslik (tatqiqot turi bo'yicha) ta'lim
yo'nalishi 2-kurs magistranti, +998888087919*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kundagi Qumqo'rgon tumani tog'-oldi tuproqlarining biologik faolligi haqida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Tuproq, eroziya, gumus, tog'-oldi tuproqlarining biologik faolligi, aktinomitsetlar.*

Tuproqni mikrobiologik faolligi va nafas olish jadalligi tuproqning biologik faolligini funksional kup omilli taksifi xisoblanib, tashki muxitning bir kator omillari (namlik harorat, eroziya jarayonlari) xamda tuproqning xossalari (gumus na oluka moddalari, gopaklik va b.) ta'sirida ungarib boradi. Shuningdek, tuproqlarni biologik faolligining potensial darajasi va uning xususiyatlari pedoekologik, ekologik-genetik sharoitlari bilan aniqlanadi. Ushbu parametrlari urganish tuproq hosil bo'lish jarayonlarining borish mexanizmini anglashda muhim ahamiyatga tuproqning unumdorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblangan agrokimyoviy xossalarning qulay darajada bo'lishi tuproqdagi mikroorganizmlarning rivojlanishi tuproq nafas olishi uchun makul sharoitni yuzaga keltiradi, bu esa o'z navbatida tuproq biomassasining xosil bulishiga va potensial biologik faollikning oshishiga sabab bo'ladi.

O'rganilgan, tuproqlardagi mikroorganizmlar miqdori va gumus miqdori o'rtasidagi korrelyatsiya bog'likligini o'rganish ularni to'g'ri chizikli bog'liklikda ekanligini ko'rsatdi va tuproqlar profilidagi biologik jarayonlarni umumiy borishini ifodalaydi. Ammonifikatorlar mikdori gumus mikdori o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti -0,8314 ($y=230,51x+60,624$), zamburuglar miqdori o'rtasidagi $y=19,639x+7,9439$, aktinomitsetlar miqdori o'rtasidagi -0,8981 ($y=45,505x+6,3217$), nitrifikatorlar miqdori



o'rtasidagi $g=0,7851$ ($y=8,5311x+0,5296$), denitrifikatorlar miqdori o'rtasidagi $g=0,775$ ($y=0,43x-17,79$), azotfiksatorlar miqdori o'rtasidagi $g=0,8369$ ($y=68,914x+32,137$). aerob sellyulozaparchalovchi mikroorganizmlar o'rtasidagi $g=0,8137$ ($y=18,069x-3,5282$). moy kislotali bakteriyalar miqdori o'rtasidagi $g=0,8802$ ($y=8,8836x-1,6595$) teng. Shuningdek, Tuproqda mikroorganizmlarni faol rivojlanishi uchun Tuproqdagi makroelementlarining ya'ni, azot, fosfor, kaliylarning miqdori mikroorganizmlar uchun umumiy optimal oziqlanish sharoitini yaratadi. Izlanishlar davomida mikroorganizmlar miqdori bilan umumiy azot, fosfor xamda kaliy miqdori o'rtasida uzviy bog'liklik kuzatildi. Ushbu natijalar asosida o'rganilgan mikroorganizm guruxlarining tuproqda azotning biologik aylanish siklida va Tuproqning strukturalanishi xamda gumus xosil bo'lish jarayonlarida faol ishtirok etishidan dalolat beradi.

Ma'lumki, tuproqlarni nafas olish jadalligi tuproqlarning organik modda bilan ta'minlanligiga bog'liqdir. Bu tuproqlarni nafas olish jadalligi va gumus miqdori o'rtasidagi aniqlangan korrelyatsion bog'likliklarda ham o'z ifodasini topadi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti tipik buz Tuproqlardan $-0,79$ ($y = 7,9892x - 1,6136$), tuk tusli buz Tuproqlar $-0,79$ ($y=5,8173x-0,8128$), tog' jigarrang karbonatli Tuproqlar $-0,81$ ($y=2,348x+0,9849$), tog' jigarrang tipik tuproqlar $g=0,91$ ($y=2,5699x+1,7564$) tomon oshib boradi. Tuproq nafas olish jadalligi va umumiy govaklik o'rtasidagi korelyatsion bog'likliklar xam yana bir bor uz Isbotini topdi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti tipik buz tuproqlarda $0,61$, tuk tusli buz tuproqlarda $g=0,70$, tog' jigarrang karbonatli tuproqlarda $g=0,88$, tog' jigarrang tipik tuproqlarda $g=0,76$ oraligida o'zgarib turadi

Bu tuproqlardan tog' jigarrang tuproqlari tomon barcha morfologik tuzilishida gumusli katlam kalinligini ortishi. Utish katlami kalinligini kiskarishi, tuk ranglarni yanada oqartirishi, gidlanish katlamini anikroq ifodalanishi, karbonatli katlamni chukkurroq stishi bilan tavsiflanadi. Shimoliy va wanyonit kimdigidagi, shuningdek kinlikning elementlarida



tarkalgan tuproqlar gidrotermik sharoitlarning xususiyatlariga bog'liq xolda tuproq Xosil turli jarayonlarining borish tezligi na punalishi uziga xosdir. kilish Uchdamchi kargish gusli yotkiziklarda shakllangan bo'z tuproqlar morfologik ko'rsatkichlariga ko'ra lese yetkiziklarda shakllangan.

bo'z tuproqlardan keskin fark kiladi. Namlikning sezilarsiz va xaroratni yukori bulishi bilan xarakterlanuvchi tabiiy sharoitda shakllangan ushbu tuproqlar kimgin-kungir yoki pushtisimon-kungir tus. gumuslanganlik, pokori gipelanganlik va zichlanganlik, genetik katamlarni sust differensiyalanishi kabi o'ziga xos litog'en xossalarii ona jinsidan meros kilib olgan.

Eroziya jarayoni tuproqlar mexanik tarkibining xam keskin o'zgarishiga olib kelgan. O'rganilgan tuproqlar turli shakllanish sharoitiga bog'liq ravishda mexanik tarkibiga kura bir xil emas. Fizik loy mikdori tipik buz tuproqlardan tog' jigarrang tuproqlar tomon oshib bordi. Tog' jigarrang karbonatli tuproqlarda ona jinsiga tomon kum zarrachalarining oshish tufayli ill fraksiyalari kamayishi Eroziyalangan tuproqlardan eroziyalanmagan kuzatiladi. Yig'ilib na to'plangan tuproqlar tomon il fraksiyalarining ortishi kuzatilsa, shimoliy kiyalik tuproqlariga nisbatan janubiy qiyalikda eroziya jarayonlari tufayli il zarrachalari kamayganligini ko'rish mumkin. tuproq tipchalari bo'yicha uchlamchi qizg'ish tusli yotkizikda shakllangan tipik bo'z tuproqlar mexanik tarkibi og'ir (55,3 %), to'k tusli bo'z tuproqlarda esa yengil kumoklidir. Bu tuproqda yirik va mayda qum fraksiyalari ustunlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.L.A.Gafurova, G.S.Sodiqova Boysun tog'i tuproqlari va ularning biologik faolligi T Turon zamin ziyo 2016
- 2.Rafikov A.A., Geoekologik muammolar. T.Ukituvchi, 1997,
- 3.Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera. T.Ukituvchi, 1995,
- 4.Tuxtaev A.S. ekologiya. T.Ukituvchi, 1988,
- 5.Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T.Ukituvchi, 1994.



O‘zbekistonda kredit-modul tizimi va uning afzalliklari .

Toshkent shahar yuridik texnikumi

"Ommaviy - huquqiy fanlar" kafedrası o‘qituvchisi.

Axundjanova Muxabbat Lazizovna

Annotasiya. Kredit-modul tizimi dunyoning ilg‘or mamlakatlari oliy ta‘lim tizimida keng qo‘llanilayotgan tizimdir. Ushbu ta‘lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri o‘quv jarayonida asosiy e‘tibor talabalarning mustaqil ishlashiga qaratilganligidir. Ushbu maqolada kredit-modul tizimi va uning O‘zbekiston ta‘lim tizimida joriy etilishi, ahamiyati, dunyo mamlakatlarining ta‘lim tizimida kredit-modul tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va afzalliklari haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kredit, modul, kredit-modul tizimi, kredit-soat, Bolonya shartnomasi, Bolonya jarayoni, ECTS tizimi, kredit-modul tizimi imkoniyati, kredit-modul tizimi ahamiyati.

Kirish. Hozirgi davrda mamlakatimizda turli sohalarda, jumladan oliy ta‘lim tizimida ham, mamlakatning kelajagi uchun mustahkam poydevor qurish va rivojlangan mamlakatlar darajasiga erishish uchun ko‘plab islohotlar va ishlar amalga oshirilmoqda. Kelajak avlodning bilimli va barkamol bo‘lib yetishishi ta‘minlash maqsadida mamlakat ta‘lim tizimiga yangi ta‘lim texnologiyalari, xorij tajribalari joriy etilmoqda. Jumladan, 1999 yil iyun oyida Italiyaning Bolonya shahrida dunyoning 29 ta mamlakati o‘rtasida imzolangan, ayni paytda dunyoning 48 ta mamlakati ishtirokchisiga aylangan Bolonya deklaratsiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi va ta‘lim tizimiga kredit-modul tizimini joriy etish



borasida ishlarning boshlab yuborilishi mamlakat oliy ta'lim tizimida zamonaviy o'zgarishlar davrini boshlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoniga ko'ra 2017-2021 yillarda oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida O'zbekistonning Bolonya deklaratsiyasiga qo'shilishiga shart-sharoitlar yaratildi va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasining Bolonya jarayoniga qo'shilishining zarurati zamon talabidan kelib chiqib, bir qancha ijtimoiy-siyosiy faktorlarga va ta'lim sohasida ro'y berayotgan ob'ektiv voqeliklar bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi suveren mamlakat sifatida jahon hamjamiyatida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda, demak u hozirgi xalqaro taraqqiyot tendensiyalaridan chetda tura olmaydi. O'zbekiston Respublikasining Bolonya jarayoni ta'lim tizimiga qo'shilishi unga dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan oliy ta'lim sohasidagi aloqalarni yanada kengaytirishni ta'minlaydi va mamlakatimiz ta'lim tizimining xalqaro miqyosidagi reytingini oshishiga olib keladi.

Bolonya jarayoni - bu Yevropa mamlakatlari orasida oliy ta'limni uyg'unlashtirish jarayonidir. U tushunish oson bo'lgan va o'xshash oliy ta'lim darajalar tizimini yaratishni, ta'limda kredit-modul tizimiga o'tishni, ta'lim sifatini ta'minlashda erkin akademik harakatlanishni va Yevropadagi ta'lim hamkorligini o'z ichiga oladi. Qisqa qilib aytganda, bu Yevropa mamlakatlarining oliy ta'lim tizimlarini uyg'unlashtirish, har bir kishi uchun teng ravishda ta'limni ta'minlash, intellektual, madaniy, ijtimoiy, ilmiy va texnologik salohiyatni shakllantirish va mustahkamlash, ta'lim sifatini takomillashtirish jarayonidir [1].



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliyta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'limtarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berishning taklif etilishi, maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlarni qayta ko'rib chiqish, mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar sonini 2 barobar qisqartirish, oliy ta'limda o'quv jarayoni kredit-modul tizimiga o'tkazish, qator oliy ta'lim muassasalarini o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tkazish, ta'lim sohasini to'liq raqamlashtirish, davlat-hususiy sheriklik mexanizmlarini ta'lim sohasiga ham keng tatbiq etish masalalari shu kunning dolzarb masalalari ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Ushbu murojaatnomada birinchi o'ringa xalqning bilim darajasini oshirish masalasi qo'yilgan, bu esa millatning raqobatbardoshligini belgilovchi omil hisoblanadi. Shu sababli, tabiiyki, ushbu hujjatda zamonaviy talablar va jahon standartlariga javob beradigan milliy ta'lim tizimini yaratish muammosining elementlari ham o'z aksini topgan.

Muammoning qo'yilishi. "Kredit-modul tizimida o'qitishning qanday afzalligi va biz amalda foydalanib kelayotgan ta'lim tizimidan qanday farqi va ustunliklari bor?". Ushbu



savollarga javob berish uchun dastlab kredit-modul tizimi haqida, kredit-modul tizimi va uning O'zbekiston ta'lim tizimida joriy etilishining ahamiyati, dunyo mamlakatlarining ta'lim tizimida kredit-modul tizimining o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va afzalliklari borasida izlanishlar olib borish muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda kredit ta'lim tizimiga asoslangan milliy modelni ishlab chiqishda, Yevropa ECTS krediti va Amerika kredit soatlari tizimlarining yutuqlarini inobatga olgan holda yuqori ta'lim sifatini va dunyo ta'lim jarayonlariga integratsiyalashish uchun ishonchli asosni tanlash maqsadga muvofiqdir [2]. ECTS kredit tizimi ko'p millatli Yevropa an'alarini inobatga olgan holda turli ta'lim tizimlarini yaqinlashtiradi.

Kredit-modul tizimida ahamiyat beriladigan asosiy masalalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin [3]:

- talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash;
- talabalar bilimini reyting asosida baholash;
- o'qitishning modulli texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- talabalarining o'z ustida mustaqil ishlashini ta'minlash uchun fanning metodik ta'minotini yanada takomillashtirish.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- o'quv jarayonini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan va kurs kesimida kreditning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting asosida aniqlash va baholash;
- talabalarining o'z shaxsiy o'quv rejalarini individual tarzda shakllantirishga imkoniyat yaratish;



- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yiladigan talabdan kelib chiqib o'zgarishlarni amalga oshirish;
- talabalarning fanlar va professor-o'qituvchilarni tanlashi uchun imkoniyatlar yaratish.

Kredit-modul tizimining afzallik va muammoli jihatlari

Kredit-modul tizimiga o'tishda bir qator muammoli jihatlarga e'tiborimizni qaratishimiz va bu tizimning afzallik jihatlari uchun urg'u berish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma.-Toshkent, TKTI, 2020. - 120 bet.
3. O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O'quv qo'llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 24 iyuldagi 569-son Qarori.



BOSHLANG'ICH SINFD A DARSNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UYGA VAZIFANING AHAMIYATI.

Raximova Salomat Sadinovna

Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani

70-umumiy o'rta ta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada shular ma'lum qilinadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining uyga beriladigan vazifalari to'laqonli yuqori darajada muvaffaqiyatli bo'lishi, ularning kelajagining farovon bo'lishini ta'minlab beradi. O'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasi uyga vazifaga bog'liqligini ko'rsatib turadi.

Kalit so'zlar: darsning samaradorligi, o'quvchilar shaxsiyati, erkin fikrlash, o'ylab topish, mustaqillikka intilish.

Kirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'tkazilayotgan darslarini samarali va qiziqarli o'tkazish o'qituvchining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Darsdan tashqari o'quvchilarga beriladigan uyga vazifalar ham, ularning bilim darajasini oshirishga yordam beradi. Uyga vazifani bajarish har bir o'quvchini mustaqillikka, erkin fikrlashga, o'ylab to'pishga va mavzuni yana bir marta tushunishga yordam beradi. O'quvchilar uy vazifasini tezda o'zlashtirishga harakat qiladilar.

Shu vaziyatdan kelib chiqib o'quvchi uy vazifasiga keyingi darsda o'qituvchi nimani so'rashi mumkinligidan kelib chiqib yondashadi. Ko'pchilik o'quvchilar og'zaki uy vazifalarini tayyorlashda berilgan matnni bir yoki ikki marta o'qiydilar. Ba'zilari hatto o'qimaydilar ham. Darslikda matn qanday berilgan bo'lsa, shunday qayta hikoya qiladilar. Darsga tayyorlikning o'lchovi matnni qayta



hikoyalashdan iborat bo'ladi. O'qilgan matn ustida mulohaza yuritilmay, matn mazmunini eslab qolishgagina tirishiladi.

Uy vazifalarini og'zaki so'rashning faqat o'quvchi xotirasiga tayanib javob berishni talab etiladigan tarzda tashkil qilinishi natijasida vazifa so'rash o'qituvchi bilan bitta o'quvchi orasidagi alohida suhbatga aylanib qolib, sinfdagi boshqa o'quvchilar unda ishtirok etmaydilar.

O'qituvchining uy vazifasini so'rashda o'rganilgan material mazmunini qayta tiklashga yo'naltirilgan savollari ta'sirida o'quvchilar aqliy faoliyati muayyan qolipda shakllanib qolishi mumkin. O'qituvchi savollarni asar mazmuniga tayanib, undan uzoqlashmagan holda matnni takrorlashga yo'naltirilib tuzsa, o'quvchilar ham o'z javoblarini asardagi tayyor dalillar ustiga quradi. Bunday so'rovlar o'quvchini o'quv materialini yodlab olishga, fikrlarni kitob tili bilan so'zma-so'z bayon etishga o'rgatib qo'yadi.

Ko'pincha, o'qilgan asarlar yuzasidan uyga beriladigan vazifalar bir-biridan farq qilmaydi va ular o'quvchilarning uy vazifalarini bajarishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Uyga topshiriq berishdan oldin, avval, uning uchun asosiy bo'lgan didaktik talablar ishlab chiqilishi kerak. Har bir topshiriq o'quvchi uchun tushunarli va uning mustaqil ravishda bajarish imkoniyatlari doirasida bo'lishiga harakat qilinishi lozim.

Uy vazifalarini bajarishga o'quvchi sinfdan o'qituvchi tomonidan alohida tayyorlanadi, manbalar ko'rsatiladi, lozim bo'lganda ishlash uchun yo'nalish beriladi. Sinfdan uy vazifasini olgan o'quvchining topshiriqni bajarishga qiziqishi va ehtiyoji, uni mustaqil ravishda bajarish yo'llari haqida tushunchasi bo'lishi lozim.

Bugungi maktab amaliyotida uy vazifalari sinfdagi o'quvchilarning ko'pchiligiga



moslashtirilgan holda umumiy tarzda beriladi. Uyga topshiriqlar berishda o'quvchilarga xos bo'lgan xususiy jihatlar, alohida o'quvchilarning ishlash imkoniyatlari inobatga olinmaydi. Bu o'z-o'zidan uy vazifasini bajarishda salbiy natija beradi. O'qituvchi tomonidan bir soatda mo'ljallab berilgan uy vazifasini o'quvchilarning ayrimlari 30-40 daqiqada, ba'zilari bir soatda, bir qismi esa 1.5 soatda bajaradi.

Bugungi o'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlari - kimning tez ishlashi-yu kimning sekin ishlashi, birovning o'ta shiddatli fikrlashi-yu qay bir o'quvchi tafakkuri jarayonining sustroq ekanini inobatga olmaydi. Uy vazifasini tekshirish asnosida uning qanday bajarilganiga - ishning puxtaligi, mavzuning anglaganlik darajasiga e'tibor qilmaydi. Bajarilgan ishning saviyasi, mohiyatiga kirib o'tirmaydi. "Bajarildimi - bajarildi" qabilida ish tutadi. Aslida uyga beriladigan topshiriqlarni ham sinfda bajariladigan ishlarni ham har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqish va imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish lozim.

Toki, birining qobilyati o'rtachalarning qurboni bo'lmasin, ikkinchisining qo'lidan kelmaydigan ishni bajaraolmay g'ururi, sha'ni yaralanmasin. Hammaga bir xil vazifa berib, uning bajarilishini barchadan birday talab qilish, uni bajara olmagan o'quvchilarni "ikki"lar bilan jazolash bugungi milliy pedagogikaning maqsadiga to'g'ri kelmaydi. O'qituvchi, ta'limning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, uy vazifalari o'quvchilarning ruhan rivojlanishi va o'qishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun ularning qat'iy me'yorini bilishi, uyda ishlash uchun topshiriqlar berishni va ularni nazorat qilishni metodik jihatdan oqilona tashkil qila olishi lozim. Ko'pchilik o'qituvchilar o'quvchilarning shaxsi, tabiati, intellektual imkoniyatlari, oilaviy sharoitiga e'tibor bermaydilar, ularning mustaqil mehnatini tashkil qilish metodikasidan bexabarlar va beriladigan uy vazifalarini yoki haddan oshirib yuboradilar yoki juda jo'nlashtirib qo'yadilar. Buning natijasida



o'quvchilar noto'g'ri ishlaydilar. Ba'zida uyga sinfda ishlanmagan, o'qituvchi tomonidan ifodali o'qilmagan badiiy matnlar yodlashga topshiriladi.

Odatda, maktabda uy vazifalari shoshilib, ko'pincha qong'iroqdan keyin beriladi. Uy vazifasini fikri tarqalgandan, shovqin ichida, tanaffus boshlanganda olgan kichik o'quvchilarning ko'pchiligi nafaqat uni qanday bajarishni bilmaydi, balki ba'zida uyga nima berilganini to'liq tasavvur ham qilolmaydilar. Bu hol uy vazifalarning qoniqarsiz bajarilishiga olib keladi yoki talab qilingan ish u yoqda qolib, butunlay boshqacha bajariladi yoxud ko'chiriladi. Uy vazifalari barcha o'quvchilar diqqati bir joyga jamlanganda berilishi maqsadga muvofiqdir.

Berilayotgan uy ishlari o'qituvchi tomonidan aniq shakllantiriladi, darstaxtaga qisqa tarzda yoziladi. Uy vazifalarning kundalikka yoki daftarga yozdirilsa, uni bajarishda chalkashliklarga yo'l qo'yilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .

1. Q.Husaboyeva, M.Hazratqulov, Sh.Jamoldinova "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi" kitobi. Toshkent.2020.
2. R. Rasulov, T. Qo'yimov "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" kitobi. Toshkent.2015
3. info.uz
4. Baxtiyor.uz



DEVELOPMENT OF SPEAKING SKILLS VIA COMMUNICATIVE TEACHING STRATEGIES IN ENGLISH CLASSES.

Samarkand State Institute Of Foreign Languages.

English Faculty || 406-gruppa XTA

Xaydarova Xurshida Rustam qizi.

Annotation: In this globalization era, there have been drastic changes taking place all over the world. These tremendous vicissitudes occur when people have a strong desire to achieve something. People's desires are fulfilled when they clearly express their ideas and opinions with others. Thus, they need to learn communication skills in order to fulfill their ambitions, desires, and goals. In this modern world, communication skills play a vital role and one must have mastery over these skills to get success in their respective fields. So, speaking is the most important skill among all the four language skills in order to communicate well in this global world.

Keywords: activities; communication; English classrooms; ELLs; speaking skills; strategies.

INTRODUCTION. In these modern days, the whole world has become a global village and people communicate with each other in a common language, i.e. English. The English language is spoken all over the world and it has attained the status of the global language. English is the language widely used in the field of scientific research, education, business, the internet, travel and tourism, media and newspapers, software, medicine, engineering, information and technology, entertainment, banking and so on. English is the language that is used mostly for business correspondence and internet purposes. It is the only major language used in writing scientific research articles as more than 85% of the research publications in English.



It is the international language used for trade and commerce. Even in the IT field also, most of the programmes are written in English and even they communicate with their colleagues or other software professionals those who work around the world in English. Furthermore, most of the books related to higher education are published in English. Due to several advantages of English, many people are learning the English language to attain fruitful results in their respective fields.

RESULTS AND DISCUSSION. As English serves the purpose of international communication, most of the foreign language learners try to learn it. In this process, they have to acquire all the four basic skills of the language, viz. listening, speaking, reading and writing. Listening and reading are passive skills or receptive skills, whereas, speaking and writing are active skills or productive skills.




Fig: The Basic Language Skills of English

Speaking skill is the most important skill to acquire foreign or second language learning. Among the four key language skills, speaking is deemed to be the most important skill in learning a foreign or second language. Brown and Yuke (1983) say, “Speaking is the skill that the students will be judged upon most in real life situations”. Regardless of its importance, teaching speaking skills have been undervalued and most of th



EFL/ESL teachers have been continuing their teaching of speaking skills just as memorization of dialogues or repetition of drills. Nevertheless, the modern world demands for the requirement of communication skills for the learners and the English teachers have to teach the ELLs the needed skills so that they will improve their abilities in speaking and perform well in real-life situations. In the present EFL/ESL teaching environment, oral skills are completely neglected whereas employability depends more on communication than technology. As very less priority has been given to the important elements of language such as phonological, morphological, semantic and syntactic aspects, it has become a major impediment for the ELLs to acquire the speaking skills among the learners of English. So far, more concentration has been given to reading and writing skills. After realizing the importance of oral communication skills, more emphasis is now laid on developing the speaking skills of the learners to pursue their studies successfully and excel in their fields once they finish their education. Moreover, English is the language of getting opportunities for employment and getting success to achieve the desired goals in life.

Three Kinds of Speaking Situations




Fig: Three Kinds of Speaking Situation

The main advantages of speaking skills are:

- To participate actively in pair or group activities in the classrooms.
- To give a maiden and impressive speech on different occasions.
- To participate actively in debates and group discussions.
- To develop critical thinking among the learners.



- To pursue higher studies in foreign countries
- interact with people all around the globe.

Another technique to improve the speaking skills of the ELLs is to make them listen to music in English and sing along. Music is considered one of the best tools for learning intonation To and pronunciation.

CONCLUSION. Speaking skills are the most important skills for ELLs as they are very useful for them in exhibiting their communication skills for various purposes. Hence, the teachers have to take a special interest in improving the speaking skills of the ELLs. For this purpose, the teachers have to refer to the latest material related to and try to adopt several techniques and approaches to develop the speaking skills of the learners in the English classrooms. The teachers should also choose appropriate material suitable for the level of the learners.

REFERENCES

1. Brown, H. D. Language Assessment Principles and Classroom Practices. London: Pearson Edition, 2004. Print.
2. Bueno, A., D. Madrid and N. McLaren (eds.). TEFL in Secondary Education. Granada: Editorial Universidad de Granada, 2006. Print.
3. Celce-Murcia, M., & Olshtain, E. Discourse and context in language teaching: A guide for language teachers. (p. 102). Cambridge: Cambridge University Press, 2000. Print.
4. Chaney, A. L., & T. L. Burk. Teaching Oral Communication in Grades K-8. Boston: Allyn & Bacon, 1998. Print.
5. Iqbal, J. Four language skills. Retrieved from <http://writing.colostate.edu/guides/teaching/es>, 2012. Online.
6. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. 4th ed. London: Longman, 2007. Print.



RESPUBLIKAMIZDAGI TA'LIM SIFATIGA OID ISLOHOTLAR IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Samatova Umida Xayrullayevna


Toshkent shahar yuridik texnikumi

"Umumta'lim" fanlar kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya . Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi muammolar, ularni bartaraf etish hamda istiqbolini belgilash yo'lidagi fikr va mulohazalar, jumladan, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, ilmiy tadqiqot ishlarini davr talablari asosida tashkil etish, bu borada xorij tajribalaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlari hamda mantiqiy fikrlash operatsiyalarni rivojlantirish kabilar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *fan va texnika, ta'lim, tarbiya, o'quv dasturi, davlat ta'lim standarti, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, kasbiy sifat, mantiqiy fikrlash, metod, texnologiya.*

Kirish. Ma'lumki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlarida o'z aksini topgan. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish,



zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir.

Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib boradi. Bu, bir tomondan, fan texnikaning yangi sohalari rivojlanishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayoni vujudga keladi. Bunday sharoitda malakali pedagoglarga bo'lgan talab ortib, fanning fundamental asoslari, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuqori bo'lgan hamda zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llay oladigan ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Bu o'z navbatida, mamlakatda modernizatsiya jarayonining tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ammo, bu sohaga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini joriy etish bo'yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi.

Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir pedagog ta'limga oid yangiliklarni muntazam o'rganib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi muhim. Bugun fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o'quv dasturi mazmuniga tez kiritish talab etiladi va bu orqali zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Bundan tashqari zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar bo'lajak pedagoglarda zaruriy bilim, muhim qonuniyat va ko'plab



fundamental tushunchalarni chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Ta'limning sifatini oshirishda pedagoglar bilim va kasbiy mahoratining davr talablariga mosligi, o'qitishda innovasion ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan darslarning samaradorligi, ta'lim oluvchi yaxshi o'zlashtirishi uchun har bir mavzuning pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llagan holda o'tilishini ta'minlash talab etiladi. O'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni amaliyotga joriy etish, ta'lim oluvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, kasb tanlash, mustaqil ta'lim olish, o'quv bilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish, mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik kabi kasbiy sifatlarga ega yoshlarni tayyorlash hamda pedagoglarni rag'batlantirish maqsadida katta ahamiyatga ega, sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Buning uchun zamonaviy o'qitish texnologiyalari imkoniyatlari va usullaridan foydalanish zarur. Jumladan: mashg'ulotda muammoli, modulli, loyihalash, evristik hamda hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilarni ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, mustaqilligini oshirish, ularda o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Bu texnologiyalar ularning berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi. Bugungi kunda o'quv mashg'ulotlari sifatini oshirish masalasiga yangicha yondashish, bajarilgan ishlar bilan cheklanmasdan, uni muntazam ravishda takomillashtirish, yangi uslub va shakllarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi.



Har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha:

- o'quv mashg'ulotining mantiqiy-tuzilish shaklini (o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ketma-ketlik) aniqlash, ularni bevosita hayot talablariga moslashtirish;
- muammoli topshiriqlarni tuzish, ular asosida uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalarni tayyorlash;
- pedagogik texnologiyalarning zamonaviy turlarini qo'llash, tajribadan o'tkazish, natijalariga qarab, o'quv jarayoniga joriy etish;
- shu tariqa ta'lim oluvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga erishish;
- pedagoglar faoliyatini rag'batlantirishda barchaga bir xil yondashish tamoyillaridan voz kechish, uning o'rniga faolligiga hamda mashg'ulotlar sifatini oshirishga taalluqli bo'lgan muayyan ishining sifati, hajmiga qarab rag'batlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari.



3. to'g'risida"gi PQ- 3151-son Qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi " O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'limtarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 07/20/4884/1484-son).
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 23 сентябрдаги "Таълим тўғрисида"ги Қонун". ЎРҚ-637-сон. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон).
8. Мавлянов А., ва б.қ.лар. "Илғор педагогик технология бўйича ўқув машғулоти лойиҳалаш". Замонавий таълим. 2016. №2. Б.25-29.
9. Мавлянов А., ва б.қ.лар. Ўқув машғулотларини ташкил этишда таълим технологиялари. Ўқув қўлланма. Тафаккур бўстони нашриёти. Тошкент, 2013. 142 б.



Tahsil olish jarayonining turli shakllarida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-didaktik modeli.

SH.SH.Matirzayev

Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi

Amudaryo muxandislik texnikumi direktor o‘rinbosari

(Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumani Mang‘it sh.)

Annatatsiya. Zamonaviy jamiyatda iste‘molchilarning atrof-muhit va tabiiy resurslarga munosabati hali ham hukmronlik qilmoqda, bu esa, o‘z navbatida, global ekologik inqirozning kuchayishiga yordam beradi. Ekologik muammolarni hal qilish jarayoni aholining ekologik madaniyati darajasini oshirish zaruratini belgilaydi. So‘nggi yillarda modernizatsiya bosqichida bo‘lgan zamonaviy ta‘lim ushbu muhim muammoni hal qilishga da‘vat etilgan. Uning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pedagogik xodimlarning tayyorgarligiga bog‘liq va shuning uchun o‘qituvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish va ularning ekologik ta‘lim muammolarini hal qilishga kasbiy tayyorgarligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tayanch so‘zlar: *Kasbiy faoliyatning yaxlit tizimi, Kasbiy kompetensiya, Ta‘lim shakllarining uzviyligi va uzluksizligi, Tahlil qilish qobiliyati.*

O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni 4-modda nazarda tutilgan ekologiya o‘quvining majburiyligiga oid talablar yetarli darajada bajarilmayapti.

Amaldagi davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlari mazmunan ekologik bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar bilan zarur darajada boyitilmagan. Shu sababli, "ekologik ta‘lim sohasidagi innovatsion sa‘y-harakatlarning eng "ilg‘or" blokiga aylanmoqda".

Bo‘lajak o‘qituvchining maktab o‘quvchilariga hamda professional ta‘lim muassasalarida ekologik ta‘limni amalga oshirishga tayyorligi uni shakllantirish mezonlarini



ishlab chiqishni talab qiladi. Ulardan biri bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash sifatini baholashda kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi murakkab, dinamik, rivojlanayotgan, o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizimdir. Zamonaviy dunyoda kasbiy ta‘limning asosiy yo‘nalishi bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy faoliyatning yaxlit tizimli qarashlari tajribasini rivojlantirishga, undagi tizimli harakatlarga, yangi muammolar va vazifalarni hal qilishga yordam beradigan faol pozitsiyani shakllantirish yo‘llarini topishdan iborat.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi ko‘p omilli hodisa bo‘lib, u o‘qituvchining nazariy bilimlari tizimini va uni muayyan pedagogik vaziyatlarda qo‘llash usullarini, o‘qituvchining milliy qadriyat yo‘nalishlarini, shuningdek, uning madaniyatining integrativ ko‘rsatkichlarini (nutq, muloqot uslubi, o‘ziga va o‘z faoliyatiga, tegishli sohalarga bo‘lgan munosabat va boshqalar). So‘nggi o‘n yillikda kasbiy mahorat va kasbiy kompetensiya masalalari psixologiya-pedagogika fanining diqqat markazida bo‘ldi, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi bir nechta kompetensiyalardan iborat murakkab toifa sifatida tushuniladi.

Ushbu muammo kasbiy ta‘lim davlat standartida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, u bo‘lajak mutaxassis modeliga kiritilgan quyidagi kompetensiya guruhlarini belgilaydi:

- umumiy madaniy (universal, asosiy)
- kasbiy (predmetga ixtisoslashgan)

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi modelini yaratuvchi barcha tadqiqotchilar va ishlab chiquvchilar uning asosiga asosiy kompetensiyalarni kiritadilar. O‘quv fanining o‘ziga xos jihatlariga asoslangan kasbiy (predmet, maxsus) kompetensiyalardan farqli o‘laroq, asosiy kompetensiyalar oliy ta‘limning barcha darajalari uchun umumiydir.

Asosiy kompetensiyalar bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining mahsuldorligi va raqobatbardoshligini belgilaydi, uning keyingi kasbiy o‘shishiga yordam beradi, kasbiy harakatchanlikni ta‘minlaydi va unga o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik ish sharoitlariga moslashishga imkon beradi.



Shu bilan birga, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni faqat ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqish ekologik jihatni e‘tiborsiz qoldiradi. Ijodkor o‘quvchi shaxsini tarbiyalashda ta‘lim shakllarining uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash murakkab jarayon bo‘lib, ta‘lim davlat standartlari mazmunini belgilash, Davlat ta‘lim standartlari hamda tayanch o‘quv rejalarini tuzish jarayonida ta‘limning turli shakllarida fanlararo integratsion jarayonlarni ta‘minlashni taqozo etadi.

Biz ekologik kompetensiyani nazariy bilimlarga, ekologiya sohasidagi amaliy ko‘nikmalarga va axloqiy tanlov sharoitida bo‘lajak o‘qituvchining ekologik jihatdan adekvat xulq-atvoriga tayyorligiga asoslangan shaxsning integratsion sifati deb hisoblayman. Bo‘lajak biologiya, kimyo yoki ekologiya o‘qituvchisining ekologik kompetensiyasi tarkibi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- kognitiv;
- qiymat-motivatsion;
- professional va faol.

Bo‘lajak o‘qituvchining ekologik kompetentsiyasining ta‘rifidan kelib chiqadiki, ular kognitiv komponentga qo‘shimcha ravishda motivatsion-qiymatli komponentni va kasbiy xatti-harakatlar shakllarini o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak biologiya, kimyo yoki ekologiya o‘qituvchilarining an‘anaviy kasbiy tayyorgarligi doirasida ekologik kompetensiyani shakllantirish qiyin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetensiyasini maqsadli rivojlantirish zarurati va bu jarayonni an‘anaviy ta‘lim sharoitida amalga oshirishning mumkin emasligi o‘rtasida yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishga turtki bo‘ldi. SHaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarda o‘quvchining o‘rganish va o‘zlashtirish jarayonida ekologik kompetensiyani shakllantirish, rivojlantirish jarayoni butun shaxs va uning barcha tarkibiy qismlarining rivojlanishiga hissa qo‘shishi kerak. Rasm 1.



**Maqsad: O'quvchilarda ekologik kompetensiyani
shakillantirish va rivojlantirish**



Auditoriya mashg'ulotlarining turlari

Ma'ruza	Amaliy mashg'ulotlar	Laboratoriya ishi
---------	----------------------	-------------------



Mustaqil ish tarkibi

Berilgan mavzu bo'yicha asl manbani o'rganish va taxlil qilish	Tabiat muhofazasi bo'yicha muammoli loyiha ishlab chiqish	Kichik guruxlarda ishlash va mustaqil taqdimot tayyorlash	Ekologik masala (mavzu) ning echimi bo'yicha ssenariy tayyorlash	Topshirilgan mavzu bo'yicha doklad tayyorlash
--	---	---	--	---



Ta'lim texnologiyalari

Modulli ta'lim texnologiyasi	Muammoli ta'lim texnologiyasi	Faol ta'lim usullari	Loyixaviy o'qitish usullari
------------------------------	-------------------------------	----------------------	-----------------------------



Fanni o'zlashtirishni nazorat qilish shakllari

Amaliy mashg'ulot natijalari asosida	YOzma ish nazorati asosida	Test sinovi asosida
--------------------------------------	----------------------------	---------------------



Natija: SHakillangan ekologik kompetensiya



Rasm 1. O'rganish va o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda ekologik kompetensiyani shakllantirish tizimi modeli.

Ta'lim jarayoniga aniqlangan nazariy va uslubiy yondashuvlar va pedagogik jarayonni tashkil etishning uslubiy tamoyillari bo'lajak biologiya va ekologiya o'qituvchilari o'rtasida ekologik kompetensiyani rivojlantirish modeli asosida yotadi, u besh blokni o'z ichiga oladi: maqsadli, mazmunli, dizayn-tashkiliy, protsetsual-faoliyat va baholash-samarali.

Ekologik kompetensiyani rivojlantirish metodologiyasi o'quv jarayonini tashkil etishning turli shakllarini o'z ichiga oladi: ma'ruzalar, laboratoriya amaliy mashg'ulotlari, seminarlar, dala mashg'ulotlari va sinfdan tashqari ishlarning boshqa turlari. Shu bilan birga, mustaqil ishlash elementlari bilan ma'ruza tuzilishi bir qator o'zgarishlarga duch keldi. U beshta asosiy bosqichni o'z ichiga oldi:

- Birinchi bosqich berilgan mavzu bo'yicha asl manbani o'rganish va taxlil qilish ta'sirini aks ettiruvchi savollarni o'z ichiga olgan.
- Ikkinchi bosqichida talabalar mustaqil ravishda tabiat muhofazasi bo'yicha muammoli loyiha ishlab chiqadilar.
- Uchinchi bosqichida talabalar kichik guruhlarda ishlaydilar, ular ko'rib chiqilayotgan ma'ruza mazmuni bo'yicha mustaqil taqdimotga tayyorlanishdi.
- To'rtinchi bosqichida ekologik masala (mavzu) ning echimi bo'yicha ssenariy tayyorlashadi.
- Beshinchi bosqichida topshirilgan mavzu bo'yicha doklad (prizentatsiya) tayyorlashdi va o'rganilayotgan mavzu bo'yicha tushunarsiz savollarni birlariga tushuntirishadi.

Talabalar ekologik kompetensiyaning "ekologik bilimlarni olishdagi talabalar faoliyati" kabi tarkibiy qismini ham ishlab chiqdilar, ular laboratoriya ishi davomi



olingan ma'lumotlarni tanlash va tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ldilar. Laboratoriya-amaliy darsning ikkinchi bosqichi talabalar bilimni nazorat qilish bilan bog'liq edi. Test shaklida yoki yozma ish nazorati asosida o'tkazilgan nazorat qismining savollariga talabalar javob berdilar.

Xulosa. To'g'ridan-to'g'ri "tabiat bilan muloqot" talabalarning ekologik kompetensiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutdi. Ekologiyada dala amaliyoti katta ahamiyatga ega edi. Unga ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (dala tadqiqoti) va talabalarning mustaqil ishlari kiritilgan. "Ekologiyadan dala amaliyoti" kursi bo'yicha mashg'ulotlar kichik guruhlarda ishlash texnologiyasidan foydalangan holda o'tkazildi. Pedagogik eksperiment davomida talabalarning ekologik kompetensiyasini rivojlantirish metodologiyasining ta'sirini eksperimental o'rganish uch bosqichda o'tkaziladi: aniqlash, izlash, shakllantirish, ularning har biri o'ziga xos maqsadga ega, muayyan muammolarni hal qilishda amalga oshirildi. Ta'lim texnologiyalaridan unumli va o'z vaqtida foydalanishni taqoza etadi ya'ni: Modulli ta'lim texnologiyasi, Muammoli ta'lim texnologiyasi, Faol ta'lim usullari, Loyixaviy o'qitish usullari va nazorat guruhlarida oldindan ishlab chiqilgan dasturga muvofiq amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Inoyatov U.I. pedagogika fanlari doktori, professor "Zamonaviy elektron didaktik vositalarni yaratish, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo" ilmiy maqolasi.
2. SHaripov SH.S. pedagogika fanlari doktori, professor "O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlash texnologiyalari" ilmiy maqolasi.
3. Glazacheva, A.O. Formirovanie ekologicheskoy kompetentnosti v sisteme visshey shkolы / A.O. Glazacheva, S.N. Glazachev // Akmeologiya. - 2013. - № 1. - S. 93-98.
4. Ermakov, D.S. Formirovanie ekologicheskoy kompetentnosti uchashixsya / D.S. Ermakov. - M.: MIOO, 2009. - 180 s.



Tarjima dasturlarining ishlash prinsipi.

Qodirova Madinabonu

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

universiteti tayanch doktoranti

begonammmm@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashina tarjimasi yo'nalishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, o'xshash va farqli jihatlari tasvirlanadi. Mashina yoki avtomatik, kompyuter tarjimasi maxsus kompyuter dasturi yordamida matnlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishdir. Endi tarjimalarni qurish uchun to'rtta asosiy algoritmgaga asoslangan tizimlar mavjud. Tarjima jarayoni maxsus algoritmni ishga tushirish bilan boshlanadi, bu taqdim etilgan matn ustida bajariladigan ko'rsatilgan operatsiyalarning aniq ketma-ketligidir. Ushbu algoritmi ma'lum bir yo'nalishda (boshlang'ich tildan maqsadli tilga) kerakli til juftligidagi tarjima mosliklarini moslashtirish uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: mashina tarjimasi, RBMT, statistik mashina tarjima, neyron tarmoqlarga asoslangan mashina tarjimasi, tizim xotira, kirish xabari, chiqish xabari.

Mashina tarjimasi deganda bitta tabiiy tildagi matnni boshqa tildagi mazmundagi ekvivalent matnga aylantirish uchun kompyuterda bajariladigan harakat, shuningdek, bunday harakat natijasi tushuniladi¹. Biroq avtomatik tarjima tarixi davomida bu usulning samarasiz ekanligi ma'lum bo'ldi. Shu sababli, bugungi kunda manba tilidagi matnning ma'nosini chuqur tahlil etadigan, undagi subyektivlik, emotsionallik va uslubiy xoslanishlarni aniqlay oladigan dasturlarni yaratish dolzarb vazifa sanaladi²

¹ Скворцова О. В. Проблемы и преимущества автоматизированного и машинного переводов / О. В. Скворцова, Е. В. Тихонова. // Молодой ученый. – 2016. – №9 – С. 1287–1289.

² Дроздова К. А. Машинный перевод: история, классификация, методы. Журнал : СЛОВО МОЛОДЫМ// УДК 81'322.4 Гуманитарные исследования • 2015 • № 3 (7), 156 с



Mashina yoki avtomatik, kompyuter tarjimasi maxsus kompyuter dasturi yordamida matnlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishdir. Endi tarjimalarni qurish uchun to'rtta asosiy algoritmgga asoslangan tizimlar mavjud³.

Ularning har biri o'z ishlash tizimi va tamoyillariga ega. Birinchi turdagi tizim grammatik qoidalarga asoslanadi⁴. Dastur ma'lumotlar bazasidagi keng qiyosiy lug'at tufayli matnlarni tayyorlash uchun grammatik qoidalar ro'yxati aniqlanadi. Ushbu turdagi tizim eng samarali hisoblanadi, chunki u tarjimaning mavhum talqinini taklif qila olmaydi.

Ikkinchi turdagi tizimlar statistik usullarga asoslangan. Ushbu tizimlar so'z va so'zlarning eng keng tarqalgan shakllari bo'yicha statistik ma'lumotlardan foydalanadi. Bunday tizimlar o'rnatilgan qoidalarga ega emas va tarjimalar sonining ko'payishi bilan tarjimalarning aniqligini oshiradi. Ushbu turdagi tizim kichik jumalarni qo'llashda yaxshi namoyon bo'ladi, lekin umumiy matn butunlay ma'nosiz bo'lib qolishi mumkin⁵.

Ma'lumki, agar xabarlarni izohlash uchun zarur bo'lgan tushuncha tizimlarining modellari tinglovchining xotirasida bo'lmasa, inson o'z ona tilida tuzilgan xabarlarni tushuna olmaydi.

Tarjima jarayonida xabarning ma'nosini qandaydir tarzda tushungan inson tarjimoni "qandaydir tushunilgan" ma'noni yetkazishga harakat qilib, B tilida xabar (chiqish xabari) yaratishga kirishadi. Buning uchun u kirish xabarini izohlashda o'zi (tarjimon!) qo'llaganlariga mos keladigan B tilidagi kontseptsiya tizimlari

³ Марчук Ю.Н. Модели перевода. Модели перевода: учеб. пособие для студ. учреждений высш. проф. образования / Ю. Н. Марчук. — М.: Издательский центр «Академия», 2010. — 176 с.


⁴ Скворцова О. В. Проблемы и преимущества автоматизированного и машинного переводов / О. В. Скворцова, Е. В. Тихонова. // Молодой ученый. — 2016. — №9 — С. 1287–1289.

⁵ Акбаева Х.Б., Хамрохужаева С.Т., ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ И ЗНАЧЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА. // ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI in-academy.uz/index.php/s. — T: 2021. С. — 24-29.



modellarini topishi kerak⁶. Mashina tarjimasi tizimi ham ana shu prinspga asoslangan holda ishlaydi. U dastlab manba tilidan olingan matnni o'z xotirasida mavjud belgilar tizimi sifatida talqin qiladi va ushbu tarjima xotirasidan tarjima qilish maqsad qilingan tilning modellariga mos birliklarni tanlaydi. Agar ushbu bosqichlardan biror qismida xatolik uchrasa yoxud ma'lumotlar yetarli bo'lmasa tarjima muvaffaqiyatsiz amalga oshadi.

Tarjimaning umumiy nazariyasi quyidagi tizimga asoslanadi:



Mashina tarjimasi muammosini o'rganishning ba'zi texnologiyalari va usullari doimiy ravishda boshqalar bilan almashtirildi⁷. Dastlab qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi o'rnini statistik mashina tarjimasi g'oyalari, asrimiz boshlaridan esa asta-sekin neyron tarmoqlarni rivojlantirish, tarjima xotirasi va doimiy yangilanishga bo'lgan yondashuvlar egallab kelmoqda⁸. Mashina tarjimasi texnologiyasini chuqurroq o'rganish jarayonida ma'lum bo'ldiki, tarjima bu shunchaki so'zlarni transkodlash emas. Unda yuzaga keladigan muammolarni matnning semantik mazmunini avtomatlashtirilgan tarzda tasvirlash hamda manba matn tegishli bo'lgan mavzu sohasi tushunchalari haqida ma'lumotga ega bo'lish orqali bartaraf etish mumkin⁹.

⁶ Ильин Д. В., Ильин В. А. Машинный перевод: суть задачи. // Russian Academy of science. Москва, 2014.

⁷ Сокирко А. Будущее машинного перевода / А. Сокирко. // Компьютерра. – 2002. – № 21. – . С. 15.

⁸ Батуев А. А. Системы машинного перевода: сравнение качества перевода и возможностей их использования (на примере технической документации в металлургической отрасли) Магистерская Диссертация, Екатеринбург: 2021. С. – 23.

⁹ Кенжаев А. Д. Машинный перевод: история и современность / А. Д. Кенжаев. // Иностранные языки и регионоведение. – 2014.



Tarjima jarayoni maxsus algoritmni ishga tushirish bilan boshlanadi, bu taqdim etilgan matn ustida bajariladigan ko'rsatilgan operatsiyalarning aniq ketma-ketligidir. Ushbu algoritmi ma'lum bir yo'nalishda (boshlang'ich tildan maqsadli tilga) kerakli til juftligidagi tarjima mosliklarini moslashtirish uchun mo'ljallangan¹⁰.

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi (RBMT) tillarning rasmiy grammatikasiga, statistik mashina tarjimasi (SMT) esa statistik ma'lumotlardan foydalanadigan tarjima algoritimiga asoslangan. Tilni tahlil qilish uchun dasturiy tizim bir xil ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, turli tillarga mansub minglab parallel matnlarni solishtiradi. Har bir o'rganilgan matn uchun o'ziga xos xususiyatlar ro'yxatini tuzadi. Masalan, kamdan-kam qo'llaniladigan so'zlar va matnda ma'lum bir chastotada uchraydigan maxsus belgilar kabi¹¹.

Tizim tarkibidagi dekoder manba matndan olingan ma'lumotni tarjima qilish maqsad qilingan til uchun to'plangan ma'lumotlarga solishtiradi. U matnning morfologik va sintaktik tahlilini olib boradi va har bir jumla uchun ehtimollikning kamayishiga qarab tartiblangan barcha tarjima variantlarini tanlaydi. Keyin dekoder foydalanish chastotasi uchun til modelidan foydalangan holda barcha qabul qilingan variantlarni baholaydi¹². Keyingi bosqichda esa ehtimollik va chastotaning eng yaxshi kombinatsiyasi bilan jumlani tanlaydi.

Statistik ma'lumotlardan foydalanish mashina tarjimasi tizimlarini til o'zgarishiga qarab o'zgartirishga imkon beradi. Agar odamlar so'zni boshqacha yozishni boshlasalar, tizim yangi matnlar kelishi bilan buni ko'radi. Tarjima sifatini oshirish uchun tizim muntazam yangilanadi va sinovdan o'tkaziladi. Mashina tarjimolarning ishini sezilarli darajada

¹⁰ Батуев А. А. Системы машинного перевода: сравнение качества перевода и возможностей их использования (на примере технической документации в металлургической отрасли) Магистерская Диссертация, Екатеринбург: 2021. С. – 23.

¹¹ Андреева А.Д. Обзор систем машинного перевода / А. Д. Андреева, И. Л. Меньшиков, А. А. Мокрушин. // Молодой ученый. – 2013. – № 12 (59). – С. 64–66.

¹² Принцип работы машинного перевода [Электронный ресурс] URL: <https://hi-news.ru/eto-interesno/kak-eto-rabotaet-mashinnyj-perevod.html>



osonlashtiradi va tezlashtiradi¹³. Biroq, matnlarni yuqori sifatli mashina tarjimasiga hali erishib bo'lmaydi.

Mashina tarjimasi tizimlari nafaqat matnlar bilan ishlash, balki alohida so'zlarni tarjima qilish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Ularda batafsil so'z kartalari va iboralar bilan to'liq huquqli lug'atlar mavjud. Tizim ushbu kartochkalarni statistik ma'lumotlar asosida, til qoidalariga asoslanib tuzadi. Mashina lug'ati uchun u faqat so'zlarning lug'at shakllarini tanlaydi va ifodalarni o'rnatadi. Tizim morfologik va sintaktik tahlilni amalga oshiradi, nutq qismini, so'zning lug'at shaklini aniqlaydi va so'z birikmalarining chegaralarini belgilaydi. Ushbu ma'lumot to'liq bo'lmagan iboralarni filtrlashga yordam beradi. Xatolar va matn terish xatolarining oldini olish uchun mashinani o'rganish texnologiyasiga asoslangan algoritm barcha potentsial tarjima juftlarini tekshiradi va ishonchsizlarini yo'q qiladi¹⁴.

Ma'nosi yaqin bo'lgan tarjimalar sinonimik lug'atlar yordamida tizim bo'yicha guruhlanadi. Ular ko'pincha boshqa tilga xuddi shu tarzda tarjima qilinadigan yoki bir xil so'zlar bilan iboralar hosil qiluvchi so'zlarni o'z ichiga oladi. Natijada, mashina lug'ati har bir so'z va ibora haqida bilishi kerak bo'lgan hamma narsani oladi: uning lug'at shakli, nutq qismi, ma'nolari va sinonimlari. Aniqlik uchun, ba'zi tizimlar parallel matnlardan olingan tarjimalarga misollar qo'shadi¹⁵.

Hozirgi kunda eng ommalashib borayotgan yondashuv neyron tarmoqlarga asoslangan yondashuvdir. Neyron tizimlarni mashina tarjimasiga joriy etish g'oyasi Google tomonidan yaratilgan o'yin g'oyasiga asoslanadi¹⁶. Bu haqida yuqorida aytib o'tgan edik,

¹³ Гусякова А.В. Информационные технологии и лингвистика XXI века, 2016

¹⁴ Каримова Р. Ф. Системы автоматизированного перевода и машинный перевод. - // Елабужского института К(П)ФУ, 2020.

¹⁵ Принцип работы машинного перевода [Электронный ресурс] URL: <https://hi-news.ru/eto-interesno/kak-eto-rabotaet-mashinnyj-perevod.html>

¹⁶ Kalchbrenner N. Recurrent Continuous Translation Models / N Kalchbrenner, P Blunsom // – In Proceedings of the Conference on Empirical Methods in Natural language Processing. – 2013. – P. 1700 – 1709.



Shu o'rinda o'ziga xos statistik mashinadan foydalanish tamoyili asosida ishlaydigan Google Translate tarjima dasturini alohida ta'kidlash joiz. Ushbu dasturning o'ziga xos xususiyati – bu uning grammatik qoidalarni tahlil qilishga emas, balki til mosligini qidirishga asoslangan tarjima usulidir¹⁷. Unda tarjima qilingan matn va foydalanuvchilar tomonidan ilgari kiritilgan so'zlarni o'z ichiga olgan xizmat ma'lumotlarining katta ombori orasidan til yozishmalarini qidirish imkoni mavjud. Ma'lumotlar bazasi sifatida xalqaro tashkilotlarning hujjatlari kabi ishonchli baholangan manbalar tanlab olinadi. Bu ancha qulaylik tug'diradi, chunki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining hujjatlari turli tillarda yuritiladi. Ularni ortiqcha tahrirsiz qabul qilish mumkin.

2016 yilda ikki tomonlama takrorlanuvchi neyron tarmoqlari mexanizmi asosida dasturlashtirilgan birinchi mashina tarjimasi tizimlari yaratildi¹⁸. Ularda ikki tilli parallel korpuslardan foydalaniladi, lekin SMTdan farqli o'laroq, ular matritsali hisob-kitoblarga asoslanadi, butun jumlar ustida ishlaydi va yanada murakkab ehtimollik modellarini yaratadi. Natijada gapdagi so'zlar bir-biriga mos keladi va to'g'ri tartibda bo'ladi. Tarjimaning ushbu versiyasi hozirgi vaqtda eng istiqbolli hisoblanadi¹⁹.

Neyron tarmog'i inson va hayvonlarning asab tizimining markaziy asab apparati tuzilishini aniqlaydigan matematik modelga o'xshaydi. Ushbu model o'z-o'zini o'rganishni moslashtira oladigan va cheklaydigan murakkab tizimni yaratishga imkon beradi²⁰.

¹⁷ Нейросетевой перевод: рутина — машине, творчество — человеку [электронный ресурс]: исследование, проведённое компанией PROMT – М. — 2019. — Режим доступа: <https://www.itweek.ru/ai/article/detail.php?ID=209160> (дата обращения 16.02.2021).

¹⁸ Машинный перевод [электронный ресурс]: исследование, проведённое А.А. Тараскином. – М. – 2017. – Режим доступа: <https://www.studyenglish.info/article065.php> (дата обращения 16.02.2021).

¹⁹ Худинский М. В. ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОГРАММ АВТОМАТИЗИРОВАННОГО И МАШИННОГО ПЕРЕВОДА, Военный университет Министерства обороны Российской Федерации, 2021. 256 с.

²⁰ Морозкина Е.А. Использование информационных технологий для оптимизации процесса перевода / Е.А. Морозкина, Н.Р. Шакирова // Вестник Башкирского университета. — 2012.



Eng zamonaviy mashina tarjimonlari neyron tarmoqlarga asoslangan bo‘lib, ular ilgari o‘rnatilgan parametrlar muhim bo‘lgan vazifalarni samarali bajarishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Кузнецов П. С., Ляпунов А. А., Реформатский А. А. Основные проблемы машинного перевода // Вопр. языкознания. 1956. № 5. С. 40–44.
2. Леонтьева Н. Н. Автоматическое понимание текстов: системы, модели, ресурсы : учеб. пособие. М. : Академия, 2006. 303 с.
3. Дроздова К. А. Машинный перевод: история, классификация, методы. Журнал СЛОВО МОЛОДЫМ, Москва, 2015.
4. www.vas3kblog.com



EKOLOGIYA INSON VA DUNYO NIGOXIDA

Termiz muhandislik-texnologiya instituti o'qituvchisi

Hasanov Hayitmurod Abdirashit o'g'li

Termiz muhandislik-texnologiya instituti 2-kurs magistranti

Musaeva Mehriniso Xamro qizi

Annotasiya: So'nggi yillarda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish masalalariga mamlakatimizda jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Butun dunyoni tashvishga, muloxazaga solayotgan diqqat e'tiborini tortayotganligi barchamizga sir emas. "Ekologik" muammolarni yechimini yechishda, O'zbekistonning o'zida bir qancha qonunlar xamda loyixalar ishlab chiqilgan Undan tashqari Atrof-tabiiy muhitimizni toza va sof saqlash masadida **"Yashil makon" umummilliy loyihasi tatbiq etildi shu bilan birga** qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish, iste'molchilarni muqobil energiyaga o'tkazish va energiya tejamlor texnologiyalarni joriy qilish jarayoni amalga oshirilmoqda.

Tayanch so'zlar: *"Ekologik" muammolar, konstitutsiya, "Yashil makon", Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik dunyosi, hayvonot dunyosi, "yashil bog'lar", "yashil jamoat parklari", davlat qo'riqxonalari, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari, tabiat bog'lari, davlat tabiat yodgorliklari, ayrim tabiiy ob'ektlar, muhofaza etiladigan landshaftlar, qayta tiklanuvchi energiya va boshqalar.*

Xozirgi kunda butun dunyoni tashvishga, muloxazaga solayotgan va xammaning diqqat e'tiborini tortayotgan muammolardan biri bu "Ekologik" muammolardir. Xozirgi vaqtda nafaqat butun O'zbekistonni balki yer sharidagi barcha davlatlarni xam tashvishga solmoqda. Bu "Ekologik" muammolarni yechimini yechishda va ularni bartaraf etishda barcha davlatlar o'zlarining munosib xissalarini qo'shishmoqda. Jumladan o'zimizning O'zbekistonimizda xam jadal ishlar olib borilmoqda.



Misol uchun birgina O‘zbekistonning o‘zida bir qancha qonunlar xamda loyixalar ishlab chiqilgan va allaqachon tasdiqlangan. Buning oddiygina isboti misolida O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan konstitutsiyasi keltirib o‘tilgan; Jumladan

50-modda. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga yehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar.

54-modda. Mulkdor mulkiga o‘z xohishicha yegalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf yetadi. Mulkdan foydalanish yekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

55-modda. Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Kabi moddalar bilan belgilangan.

Undan tashqari xozirgi vaqtda atmosfera xavosining ifloslanishi ruxsat etilgan meyor (REM) dan oshib ketganligi va bir necha yildan beri yurtimizda atmosferaga changlar ko‘tarilishi oqibatida turli xildagi kasalliklar avj olmoqda. Ushbu jarayonlarni oldini olish maqsadida yurtimizda bir qancha ishlar jadallashtirib yuborildi. Atrof-tabiiy muhitimizni toza va sof saqlash masadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 Dekabrdagi Pf-46-Son Farmoniga Asosan “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan butun mamlakat miqyosida "Yashil makon" umummilliy loyihasi tatbiq etildi.

Farmon bilan davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirildi. Bunda belgilanishicha, moratoriy davrida amaldagi cheklov va majburiyatlar bilan birga qo‘shimcha ravishda huquqbuzarlarga:



- moratoriy talablarini buzganlik uchun ma'muriy jarimalar miqdori besh baravarga;
- daraxtlar va butalarni noqonuniy kesish va shikastlantirish bilan o'simlik dunyosiga yetkazilgan zarar uchun undirish summalari ikki baravarga oshirilgan holda qo'llaniladi.

Shu tariqa o'simlik dunyosini asab qolishimiz va ularni yanada ko'paytirishimiz kelajak avlodga yetkazishimiz xar birimizning insoniylik burchimiz sanaladi.

Yerning va (yoki) suv kengliklarining (akvatoriyalarning) ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik bo'lgan, xo'jalik maqsadidagi doimiy yoki vaqtincha foydalanishdan to'liq yoki qisman chiqarilgan uchastkalari muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hisoblanadi.

Tabiiy ob'ektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda muhofaza qilish va foydalanish rejimi o'rnatiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biologik, landshaft rang-barangligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlab turish uchun mo'ljallangan yaxlit ekologik tizimni tashkil etadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar belgilangan maqsadi va rejimiga qarab quyidagi toifalarga bo'linadi:

davlat qo'riqxonalari, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari, tabiat bog'lari, davlat tabiat yodgorliklari, ayrim tabiiy ob'ektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar, muhofaza etiladigan landshaftlar, ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar.

Tabiiy ob'ektlar va majmualarni muhofaza qilishning qattiq rejimiga ega bo'lgan, tipik ekologik tizimlar, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish hamda o'rganish uchun mo'ljallangan, umumdavlat ahamiyatiga molik muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat qo'riqxonalari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida 6 ta davlat qo'riqxonalari mavjud:

Alohida ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy ob'ektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar majmua (landshaft)



buyurtma qo‘riqxonalari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida 1 ta majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxona mavjud.

Alohida ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo‘lgan tabiiy ob‘ektlar va majmualarni tabiatni muhofaza qilish yo‘nalishidagi, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda saqlab qolish hamda ulardan foydalanish uchun mo‘ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiat bog‘lari hisoblanadi. Tabiat bog‘lari maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasiga binoan tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari bilan davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklida tashkil etiladigan milliy tabiat bog‘lari va mahalliy ahamiyatga molik tabiat bog‘lariga bo‘linadi. O‘zbekiston Respublikasida 5 ta davlat milliy tabiat bog‘i mavjud:

Xorazm davlat milliy tabiat bog‘i, Zomin davlat milliy tabiat bog‘i, Zarafshon davlat milliy tabiat bog‘i, Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog‘i, Kitob geologik milliy tabiat bog‘i.

Noyob, o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan, ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiiy ob‘ektlari bor muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat tabiat yodgorliklari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida 11 ta davlat tabiat yodgorliklari mavjud:

Vardanzi davlat tabiat yodgorligi, Mingbuloq davlat tabiat yodgorligi, Chust davlat tabiat yodgorligi, Yozyovon davlat tabiat yodgorligi, Yangibozor davlat tabiat yodgorligi, Varaxsha davlat tabiat yodgorligi, Paykent davlat tabiat yodgorligi, Zilxa davlat tabiat yodgorligi, Akbarobod davlat tabiat yodgorligi, Bo‘stonbuva davlat tabiat yodgorligi, Urung‘och davlat tabiat yodgorligi.

Ayrim tabiiy ob‘ektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko‘paytirish va tiklash uchun mo‘ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar buyurtma qo‘riqxonalar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida 12 ta davlat buyurtma qo‘riqxonalari mavjud



O‘simliklar va hayvonlarning ayrim turlariga zarur sharoit yaratish yo‘li bilan ularni saqlab qolish, takror ko‘paytirish va tiklash uchun mo‘ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiiy pitomniklar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida 1 ta davlat tabiiy pitomnigi mavjud:

O‘rmon fondining eroziyaga qarshi barpo etilgan o‘rmonlar, shahar o‘rmonlari, shaharlarning, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining yashil mintaqalari atrofidagi o‘rmonlar, alohida qimmatli o‘rmonlar, yong‘oqzorlar, mevali daraxtzorlar, ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga molik o‘rmonlar egallagan yerlari, shuningdek ovchilik xo‘jaliklarining o‘simlik va hayvonot dunyosidan oqilona foydalanish uchun mo‘ljallangan yer uchastkalari ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo‘ljallangan hududlar jumlasiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligining tasarrufida 71 ta o‘rmon xo‘jaligi, va 5 ta ov xo‘jaliklari mavjud.

Hududlarni barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish maqsadida davlat biosfera rezervatlari — biologik rang-baranglikni saqlash, tabiiy ob’ektlar va majmualardan oqilona foydalanish uchun mo‘ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etilishi mumkin. Davlat biosfera rezervatlari xalqaro biosfera rezervatlari tarmog‘iga qo‘shilishi va atrof tabiiy muhitning global monitoringida ishtirok etishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasida 2 ta biosfera rezervati mavjud:

– Quyí Amudaryo davlat biosfera rezervati, Ugom-Chotqol davlat biosfera rezervati.

Alohida ekologik, ilmiy, madaniy va estetik ahamiyatga ega bo‘lgan, o‘simliklarning noyob va qimmatli, shu jumladan manzarali turlarini saqlab qolish, takror ko‘paytirish va tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda oqilona foydalanishga mo‘ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar milliy bog‘lardir. O‘zbekiston Respublikasida 1 ta milliy bog‘ mavjud:

– Do‘rmon milliy bog‘i



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida Qarori chiqqan bo'lib unda quydagilar keltirilgan:

Ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish orqali respublika hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta'minlash, bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda investorlar uchun qulay sharoitlar va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilish maqsadida:

qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish, iste'molchilarni muqobil energiyaga o'tkazish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish orqali 2023 yilda qo'shimcha 5 milliard kilovat-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish va 4,8 milliard metr kub tabiiy gazni iqtisod qiladi.

2023 yil 1 apreldan boshlab umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ushbu qurilmalar bo'yicha mol-mulk solig'i, qurilmalar bilan band bo'lgan uchastkalar bo'yicha yer solig'i hamda yuridik shaxslar tomonidan umumiy tarmoqqa sotgan elektr energiyasi uchun olgan foydasidan hisoblanadigan foyda solig'ini to'lashdan ular foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran uch yil muddatga, o'rnatilayotgan quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'lmagan quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimi bilan o'rnatilgan bo'lsa — o'n yil muddatga ozod etiladi;

2023 yil 1 martdan boshlab yagona elektr energetika tizimiga ulanish uchun berilgan texnik shartlarda ko'rsatilgan quvvatdan yuqori bo'lmagan qayta tiklanuvchi energiya energiya manbalari qurilmalarini elektr tarmoqlariga ulashda qo'shimcha texnik shart olish talab etilmaydi.

Yana bir bor ta'kidlab o'tishimiz joizki muxtaram prezidentimizning olib borilayotgan isloxlari natijasida yurtimizda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda shu



jumladan konstitutsiyamizga bir qancha o'zgartirishlar va qo'shimcha moddalar kiritilmoqda jumladan:

- Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi (49-modda.)

Atrof-muhit inson salomatligi va hayotiga ta'sir qiluvchi muhim omildir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligining 20-40 foizi atrof-muhit holatiga bog'liq. Qulay atrof-muhit tabiiy zaxiralar qisqarayotgani, global iqlim o'zgarishi, ekologiya va tabiat bilan bog'liq muammolar insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan hozirgi davrda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, ko'pgina rivojlangan davlatlarda ham ushbu muammo keng muhokama etilmoqda hamda ekologiya muhofazasiga oid yangi normalar konstitutsiyalarga kiritilmoqda.

So'nggi yillarda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish masalalariga mamlakatimizda jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Zero, fuqarolarning munosib atrof tabiiy muhitga bo'lgan huquqlari ta'minlanmasdan turib fuqarolarning salomatligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash imkonsizdir.

Mazkur norma jamoatchilik nazoratini kengaytirish orqali aholimiz va kelajak avlod uchun qulay va ekologik toza hududni saqlab qolish, aholining salomatligini ishonchli muhofaza etish, ularni yashashi va rivojlanishi uchun qulay atrof-muhitni ta'minlashning konstitutsiyaviy kafolatlarini kuchaytiradi.

- Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi (49-modda). Orolbo'yi mintaqasida yuzaga kelgan global ekologik muammo 50 mln. nafarga yaqin mintaq aholisining hayot tarziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, O'zbekistonda Orol muammosi oqibatlarini bartaraf qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, **Orol dengizi tubining 2,5 mln. gektarida yangi "yashil makon" yaratilmoqda.** Shuningdek,



Orol va Orolbo'yidagi murakkab ekologik vaziyat, aholi genofondini muhofaza qilish, salomatligini yaxshilash hamda ushbu hududda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiyada ushbu normaning belgilanishi mintaqa aholisi uchun munosib yashash sharoitlarini yaratilishini va turmush darajasini jiddiy tarzda yaxshilanishini ta'minlaydi, barcha kasb egalari, birinchi navbatda ijtimoiy soha vakillari uchun qo'shimcha imtiyozlar paketi qo'llaniladi hamda tadbirkorlik tuzilmalari va nodavlat notijorat tashkilotlarining atrof-muhitni himoya qilishga yo'naltirilgan turli loyihalarda faol qatnashish imkoniyati paydo bo'ladi. Mazkur norma aholimiz va kelajak avlod uchun qulay va ekologik toza hududni saqlab qolish, Orolbo'yi mintaqasida yashovchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ishsizlikni kamaytirish, aholi yashashi va rivojlanishi uchun qulay atrof-muhitni ta'minlashning konstitutsiyaviy kafolatlarini yaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Ekologik muammolar yil sayin ortib borishi, ularni oldini olishimiz xamda muammolarni keltirib chiqaradigan jarayonlarni o'z vaqtida bartaraf etishimiz va birdamligimizni saqlab qolishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori 2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori <https://lex.uz/doss/-4539502>
2. <https://www.uznature.uz/yz/activity/biodiversity?numer=444>
3. <https://lex.uz/doss/20596>
4. <https://lex.uz/doss/6201421>
5. <https://lex.uz/uz/doss/6385716>
6. [https://www.norma.uz/qonunchilikda yangi/yashil makon umummilliy loyihasi tatbiq yetiladi](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/yashil_makon_umummilliy_loyihasi_tatbiq_yetiladi)